



## **INKLYUZIV TA'LIMGALALB QILINGAN O'QUVCHILARGA NISBATAN SOG'LOM BOLALARNING MUNOSABATLARI**

**Ismatova Ra'no Raxmatovna**

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani 4-umumiy o'rta  
ta'lim maktabining Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan yoki maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Tanganing ham ikki tomoni bo'lgani singari inklyuziv ta'limga jalb qilingan o'quvchilarga sog'lom bolalarning fikrlari va his tuyg'ularini o'rganish va ularga maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan samimiy munosabatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** his-tuyg'ular, samimiy munosabat, qat'iyat, irodaviy sifatlar, yosh hususiyatlari, samarali harakat, individual xususiyatlar, moslashuvchanlik, teng huquqlilik, umuminsoniy qadryatlar.

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi kelajak uchun mustahkam poydevar qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Ta'lim sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim-tarbiyasini ham qamrab olgan. Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor: Birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalalanadilar, sog'lom bolalar esa



ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi, nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar. Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi. Inklyuziv ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lim maktablarining katta bo'lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritadi. Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimda o'qitilishi ularning maktabni tugatib, ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini osonlashtiradi. Shuningdek bu toifadagi bolalar o'z-o'ziga xizmat qilishga va o'z tengqurlari bilan munosabatga kirishishga duch keladilar. Maktablarda sog'lom bolalarning ruhiyati va ularning his tuyg'ulari nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan o'zgaradi. Ya'ni o'rtoqlik, yordam ko'rsatish, o'zaro teng pozitsiyada munosabatda bo'lish, hurmat qilish va samimiy munosabatlari shakllanadi.

Biz bilamizki yer yuzidagi har bir inson o'ziga xos bir olam, ularning o'z dunyoqarashi, fikrlari, ijtimoiy hayotda o'z pozitsiyalari, hamda o'ziga xos takrorlanmas individual psixologik xususiyatlari, iqtidor va layoqatlari mavjud. Barcha bolalarning individual psixologik xususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bola ta'lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Zero maxsus ehtiyojli bolalarning ham o'ziga xos fel-atvori va qarashlari bor. Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojlanadi, buni L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlariga ko'ra **“Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi”** fikri bilan ham tasdiqlash mumkin.

Sog'lom bolalar bunday bolalar bilan munosabatda bo'lganlarida va ta'lim jarayonida hamkorlikda ishlash jarayonida ijobiy va salbiy munosabatlar ketma-ketligi tarkib topadi. Demak sog'lom bolalarda qanday ijobiy va salbiy munosabatlar shakllanadi? va bular quyidagilar:

**Ijobiy munosabatlar:** Alohida yordamga muhtoj bolalarga nisbatan o'zaro yordam berish, ularni jamiyatning bir bo'lagi, o'zi kabi shaxs sifatida qabul qiladilar, ularning



fikrlari va qarashlarini hurmat qilishni o'rganadilar, O'zlarini sogligini qadriga yetib, o'z imkoniyatlaridan unumli va mazmunli foydalanish kerakligini anglab yetadilar, har bir bola ta'lim olish huquqiga va kerakli darajada bilim olish imkoniyatiga ega ekanligini anglab yetadilar, diqqat-e'tiborlilik, sezgirlik, kuzatuvchanlik, sinchikovlik kabi xususiyatlar tarkib topadi, nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashish emas, balki bu bolalarga yaqin do'st, o'zi kabi shaxs sifatida qarash tuyg'ulari shakllanadi.

**Salbiy munosabatlar:** Nogironligi bo'lgan bolalar bilan do'st, o'rtoq bo'lishga iymonish, dars jarayonida o'zaro yordam bermaslik, e'tibosizlik, kibrga berilish, beparvolik, egoistlik, noshukurlik, o'z imkoniyatlaridan unumli foydalana olmaslik kabi xususiyatlar ham sog'lom bolalarning ayrimlarida uchrashi mumkin.

Inklyuziv ta'limga jalb qilingan o'quvchilarning ota-onalariga, ularning o'qituvchilari va sinfdoshlariga maxsus yordamga muxtoj o'quvchilarga samimiy va ijobiy munosabatda bo'lish ularni ham shaxs sifatida qabul qilish va milliy, umuminsoniy qadryatlarimizni yoshlar ongiga singdirish adolat, sadoqat, g'amxo'rlik kabi fazilatlarni shakllantirish kerak.

Ko'p yillar davomida nogironligi bo'lgan bolalar alohida sharoitlarda ta'lim tarbiya berib kelingan, lekin bugungi kunga kelib dunyo miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi alohida ehtiyojli bolalarga e'tiborni yanada yaxshilanishiga olib keldi.

Portlend Davlat Universiteti psixologlarining tadqiqotlariga ko'ra nogironligi bo'lgan insonlarga nisbatan salbiy munosabatlarning asosi go'zallik, ong-tana aloqasi, shaxsiy mahsuldorlik, muvoffaqiyat va ijtimoiy-iqtisodiy maqom kabi qadryatlarga qaratilgan ekanligi aniqlandi. Hamma qadryatlar shu jumladan ijobiy va salbiy munosabatlar inson ichki ruhiyatining aks ettiruvchi ichki instinktiv tuyg'ularni keltirib chiqaradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki salbiy munosabatlar bizni ko'proq ma'lumot izlashga undaydi va yoqtirmasligimiz yoki shubhamizni qo'zg'atishi mumkin. Aksincha,



ijobiy munosabat bizga passiv va befar harakatni keltirib chiqaradi va bu bizga taqdim etilgan narsani yaxshi deb qabul qilishga olib keladi. Nogironligi bo'lgan o'quvchilarga nisbatan salbiy munosabat o'quvchilarni bir-biriga yaqinlashtirishga va rishtalar bog'lashga yordam berganini aniqladilar. Binobarin, salbiy munosabat ham majburiy kuchga ega. Umumta'lim maktablarida o'z sog'lom tengqurlari qatorida o'qiydigan bolalarga o'qitish va ta'limni to'g'ri tashkil qila bilish har bir nuqsonli bolalarni hayotda o'z o'rnini topishi, o'zlikni anglashi, kelajakda o'z mehnati evaziga hayot kechirish ko'nikmasiga ega bo'lishi, ulardagi hayotiy ko'nikmalarni rivojlantira olsakgina biz ko'zlagan maqsadimizga yetamiz. Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas balki jamiyatning bir bo'lagi, iqtidor yoki istedod egasi sifatida qarash bugungi ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1) Slovar`, Psixologiya, Siyosiy adabiyot nashriyoti - Moskva, 1990 yil
- 2) Entsiklopediya. Umumiy va ijtimoiy psixologiya, M.I.Enikeev, PRIOR nashriyoti - Moskva, 2002.
- 3) Umumiy psixologiya, A.V.Petrovskiy, “O'qituvchi nashriyoti” – Toshkent, 1975.
- 4) V.Noskov, Rivojlanish psixologiyasi va yosh davr psixologiyasi, Vladivostok, 2003.
- 5) Delovaya psixologiya, A.V.Morozov, Izdatelstvo Soyuz – Sankt-Peterburg, 2000.

Internet manbalar:

- 6) <https://ru.wikipedia.org/>
- 7) <http://elibrary.bsu.az/books>